



THE ROLE OF ARCHITECTURAL MONUMENTS DATING BACK TO THE ERA OF THE KOKAND KHANATE IN THE CULTURAL HERITAGE OF THE HISTORY OF UZBEKISTAN

Gulshanoy Madrakhimova

Professor of the Department of National Pride and Military Patriotism, Ph.D., Associate Professor

*Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Jome' mosque, madrasa, architect, muse, amulet, room, Architecture, Gallery, Dome, pattern, Monument, Museum.

Received: 07.03.25

Accepted: 09.03.25

Published: 11.03.25

Abstract: This article deals with the current state of preservation of the Memorian monuments built during the Kokand Khanate and its importance as a unique memory of the culture of our people. It was also analyzed that some of these monuments were converted into museums and serve not only us, but also foreign tourists.

O'ZBEKISTON TARIXINING MADANIY MEROSIDA QO'QON XONLIGI DAVRIGA OID ME'MORIY OBIDALARINING O'RNI

Gulshanoy Madrakhimova

Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi professori, t.f.n., dotsent

O'R Qurolli Kuchlari Akademiyasi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Jome' masjidi, madrasa, me'mor, musavvir, tumor, Xonaqoh, Arxitektura, galereya, gumbaz, naqsh, yodgorlik, muzey.

Annotatsiya: Ushbu maqlolada Qo'qon xonligi davrida qurilgan memoriy obidalarning bugungi kundagi saqlanganlik holati va xalqimiz madaniyatining noyob memorchiligi sifatidagi ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, bu memoriy obidalarni ayrimlari muzeylarga aylantirilib nafaqat bizga balki xorijiy sayyoohlarga ham xizmat qilayotganligi tahsil qilingan.

МЕСТО АРХИТЕКТУРНЫХ ПАМЯТНИКОВ ПЕРИОДА КОКАНДСКОГО ХАНСТВА В КУЛЬТУРНОМ НАСЛЕДИИ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА

Гульшаной Мадрахимова

Профессор кафедры национальной гордости и военного патриотизма, доктор философских наук, доцент

*Академия Вооруженных Сил Республики Узбекистан
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: мечеть Джоме, медресе, архитектор, мусаввир, амулет, комната, архитектура, Галерея, купол, узор, памятник, музей.

Аннотация: В данной статье рассказывается о сегодняшнем состоянии сохранности памятников архитектуры, построенных в период Кокандского ханства, и их значении как уникальных памятников культуры нашего народа. Также было проанализировано, что некоторые из этих памятников архитектуры превращаются в музеи и обслуживаются не только нас, но и иностранных туристов.

Kirish. O‘zbekiston tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak yurtimiz boy madaniy ma’naviy merosga ega. XVIII-XIX asrlarga oid memorchilik namunalari bugungi kunda davlat muhofazasiga olingan. Bugungi kunda mamlakatimiz diqqatga sazovor joylari xorijiy sayyoohlar tashrif buyuradigan maskanlarga muzeylarga aylantirilgan.

Qo‘qon xonligi davrida xonlikning bir necha shaharlarida me’morchilik sohasida katta yutuqlarga erishildi. Xonlikning markazi Qo‘qon shahrida, Marg‘ilon, Andijon, Namangan, Toshkent shaharlarida masjid, madrasalar, kutubxonalar qurildi. Binolarni bezatish uchun gul namunalari keng qo‘llanilib, shiftlarga bo‘yoqli naqshlar chizish, naqshlarni ganchga o‘yib solish o‘scha davrning o‘ziga xos xususiyatlari hisoblangan. Shuningdek, yog‘och va misga o‘yib nozik naqshlar solish ham keng tarqalgan.

XIX- asrda Qo‘qonda 50 dan ortiq madrasalar bo‘lib, ulardan ko‘pi ob-havo, zilzila va urushlar natijasida bugungi qadar saqlanib qolmagan. Madrasalarning ba’zilari XVIII- asrda qurilib keyingi davrlarda ham qayta ta’mirlanib faoliyat ko‘rsatgan. 1817- yilda ma’rifatli hukmdor Umarxon rahnomoligida Qo‘qon shahrining Chorsu mahallasida Jome’ masjidi bunyod etildi. Jome’ masjid madrasa sifatida ham foydalanish uchun mo‘ljallangan va unda yuzga yaqin hujralar mavjud bo‘lgan. Umarxon masjid qurilishiga alohida e’tibor qaratgan. U o‘ratepalik mohir me’mor, musavvir va shoir Xudoyor Maxfiyni masjid qurilishiga taklif etadi. Me’mor bu ishga ijodiy yondoshib, bino tuzilishiga o‘zgacha ma’no singdiradi. Masalan, ayvon tomini uch qatorga tizilgan 98 ta adl ustun ko‘tarib turadi. Bu raqamni hovlida qad ko‘targan muhtasham minora to‘ldirgan (balandligi 22,5 m), shu tariqa 99 raqami yuzaga keladi. Shift bolorlar yordamida 114 naqshdor ariqchaga bo‘lingan, bu Qur’on suralari miqdoriga ishora. Nihoyat, har

bir ariqcha 7 bosha yordamida sakkizta teng qismga ajratilgan, “bu jannatga kirishning sakkiz bosqichi ramzi”dir.

Agar me’mor masjidning muayyan qismlarini Qur’on Karim timsoli bilan bog’lab, masjid tuzilishiga ma’lum an’anaviy ma’no olib kirgan bo’lsa, xuddi shunday yondashuvni biz o‘z-o‘zidan uning bezagida ham ko‘rishimiz mumkin. Ayvon va xonaqoh shiftlari, ariqchalaru ulardagagi vassajuftlar, muqarnasu ustunboshilar-barchasi naqshu nigor bilan qoplangan, ya’ni namoz o‘qiyotganlarning boshi uzra yastangan [1]. Islimi va handasaviy naqshlarga boy nafis bezaklarda inson go‘yo “arshi a’loga, jannatul ma’voga ishora qilinayotgani”ning guvohi bo‘lishi mumkin. Naqshdor ariqchalarda bodom nusxa tumor shakli tushirilgan. Masjid qurilishida diniy ramzlar va dunyoviylik uyg‘unlashib ketganligini ko‘rish mumkin.

Shu bilan birga naqsh miqyosiga turli yondashuv ham yo‘q emas-mehrob ustidagi to‘sinalig‘i – ariqchalarga shiftdagи qo‘shni ariqchalarga nisbatan nozikroq naqshlar chizilgan. Aynan mana shu ariqchalarda o‘qilayotgan nomoz ovozini kuchaytiruvchi va qaytaruvchi havzaklar ishlangan. Jome’ masjidi bezagida ranglar xilma-xilligi bilan o‘zgacha ko‘rinishga ega va inson o‘zining ilohiy zuhurlari bilan borliq olamni ko‘z o‘nginida namoyon bo‘lib turganday his etadi. XIX asr me’morchilik yodgorligi bo‘lmish “Jome” masjidining ko‘rkamligi haqida ko‘plab qo‘lyozma va manbalarda ma’lumotlar berilgan. Jumladan Mullo Olim Mahdum Hoji [2], Is’hoqxon Junaydulloxoja o‘g‘li Ibrat[3], Mirzo Olim Toshkandiy [4] va Mahmud Hakim Yayfoni [5] lar Jome’ masjidi va madrasasini ta’riflab, xalq uchun yaxshi xizmat qilganligini o‘z asarlarida yozib qoldirganlar.

Ushbu masjid bugungi kunda ham faoliyat olib boradi. Bino turli davrlarda qayta ta’mirlangan. Qo‘qon shahrining madaniy merosi hisoblanadi va shaharning ko‘rkiga chiroy bag‘ishlaydi.

Qo‘qon xonligi davrida xonlikning madaniy-ma’naviy markazi bo‘lgan Toshkent shahrida ham bir qancha masjid, madrasalar qurilgan. Shulardan biri Baland masjidi (Chaqar ko‘chasi) toshkentning qadimiy Beshyog‘och dahasida joylashgan. Bu masjid honaqoh, ayvon va gumbazli darvozaxona hamda minoradan tashkil topgan[6]. Masjid shiftida, “1277 hijriy yil - 1857-58 yillar”, deb yozib qo‘yilgan.

Xonaqoh shifti ikki ustunda ko‘tarilgan bo‘lib, shifti to‘sin-vassali qurilmadan iborat. Ayvon ham qo‘sh ustunli bo‘lib, shifti to‘sin-vassali qilingan. Ayvon Beshyog‘och ko‘chasiga ochilgan. Masjidga uch ravog‘i bilan ochilgan galereya esa uch gumbaz bilan yopilgan. Uning sharqidан kirish mumkin. Darvozaxonaning janubiy-sharqiy burchagida uncha baland bo‘lmagan minora mavjud bo‘lgan. Ochiq ayvon bilan darvozaxona tarzlari birikmasi qiziqish uyg‘otadi. O‘z davrida bunday tarqli masjid noyob sanalgan.

Qo‘qon xonligining bugungi kundagi moddiy madaniy merosi sifatida e’tirof etiladigan me’moriy yodgorliklaridan biri Xudoyorxon hukmronligi davrida qad ko‘targan saroyni aytish mumkin. Saroy 1863–73 yillar davomida qurilgan. Hozirda bu saroy o‘lkashunoslik muzeyi sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda. Arxitektura shakllariga ko‘ra Xudoyorxon saroyi O‘rtal Osiyodagi XIX asrda yaratilgan binolardan unchalik farq qilmasada, biroq saroyning tashqi ko‘rinishida o‘ziga xosliklar ham bor. Moylik bo‘yoqlar uyg‘unligi Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridagi me’moriy yodgorliklarning tashqi ko‘rinishiga umuman xos bo‘lmagan. Xudoyorxon saroyining tashqi qoplamasida kamalakning deyarli barcha ranglaridan foydalanilgan. Bir qarashda bu rang-baranglik O‘rtal Osiyodagi boshqa me’moriy yodgorliklarning oqish-havorang tuslarini qabul qilishga ko‘nikkan ko‘zni qamashtiradi. Biroq kishi rasmlar va ranglar uyg‘unligini qanchalik ko‘p tomosha qilsa, naqshdagi rasmlarning o‘ziga xosligiga shunchalik hayron qoladi va binoning tashqi ko‘rinishini bezab turuvchi 14 ta tokchadagi naqshlar biron marta takrorlanmasligiga ishonch hosil qiladi [7]. Biroq, e’tibor bilan qaralganda bu tokchalar 13 ta ekaniga ishonch hosil qilasiz. Saroyning o‘ng tarafidagi tokchalar Qo‘qonlik ustalar tomonidan chap tarafidagi tokchalar Buxorolik ustalar tomonidan qurilgan va ular ish uslublarini bir-biridan sir tutganligi sababli tokchalarning soni bittaga farq qilgan [8]. Saroyning ichki xonalari yorqin tusli o‘simliksimon naqshlar bilan bezalgan.

Bugungi kungacha saqlanib qolgan saroy majmuasi shahar atrofidagi yerlarda joylashgan bo‘lib, juda yaxshi rejalashtirilgan. Loyiha tuzilishi va bezak usullarida XIX- asr me’morlarining mahoratini ko‘rish mumkin. Saroy qurilishga me’mor Mir Ubaydulla boshchilik qilgan. Qurilish 1863- yildan 1870- yilgacha davom etgan. Jozibali bezaklarni mashhur Rishtonlik ustalar Abdulla va Jamil ustalar tomonidan ishlangan. Saroy shiftidagi rang-barang bezaklar va Saroy qabulxonasidagi o‘yma alebastr bezaklarni Fozilxo‘ja, Mamasidiq va Yo‘ldosh Najarboshi ismli ustalar bajargan. Qurilishda 80 ta usta, mingta g‘isht teruvchi va aravakashlar qatnashgan. Saroy egallagan maydon sahni 1 gettarga teng bo‘lib, bundan bog‘ va oilaviy mozor mustasno edi [9].

Majmua G‘arbdan Sharqqa tomon o‘q bo‘ylab cho‘zilgan saroy va binolar tizimini ifodalab, darvozaga olib boruvchi bir qator bosib o‘tiladigan hovlilardan iborat edi. Yaqin joyda qo‘riqchilar uchun xonalar va mehmonlarning otlari uchun og‘illar bor edi. Bularning barchasi hozirgi kungacha saqlanib qolmagan.

Ilgari qo‘sishimcha xonalar bilan bitta o‘qda joylashgan va G‘arbiy tomonni egallagan ajoyib saroy saqlanib qolgan. Xudoyorxon saroyi baland supaga ko‘tarilgan bo‘lib, uning asosiy eshiklariga uzun va qiyali yo‘lka olib boradi. Binoning old tomoni XIX- asrdagi boshqa bunday binolardan qo‘llangan ranglarining boyligi va yorqinligi bilan ajralib turadi. U pishgan g‘ishtdan qilingan supa qatlamlaridan iborat bo‘lib, to‘rtburchak hoshiya bilan o‘ralgan, ketma-ketlikda

keluvchi katta va kichik nayzasimon ravoqlar bilan bezalgan. Nayzasimon ravoqlar maqomi devorning old tomoni bezaklarida ham kuzatiladi. Saroy hududiga kirish eshiklarida markaziy peshtoqqa kiritilgan old tomon ravog‘i e’tiborni o‘ziga jalgiladi.

Baland peshtoq va saroyning butun old tomoni yon tomonlardan burchaklardagi sirlangan gumbazchalar bilan yopilgan nozik chiroqchalar bilan himoya qilingan. Hovlining old tomonida katta va kichik qabullar uchun ikkita zalga tutash timlar kolonnasi bo‘lgan asosiy hovli bo‘lib, bu zallar oldida kichik-kichik kutish xonalari bo‘lgan. Ushbu hovlining shimoliy qismiga ikkinchi hovli tutashgan bo‘lib, unda masjid, g‘azna va devon joylashgan bo‘lgan.

O‘z davrida saroyning o‘rta qismida xonning o‘zi yashagan xonalar hamda xon va uning oilasiga xizmat qiluvchi xizmatkorlar uchun xo‘jalik binolari joylashgan edi. Saroyning orqa qismini ikki qavatli binodan iborat bo‘lgan uchta yirik hovli egallagan bo‘lib, barcha oila a’zolari yashashi uchun mo‘ljallangan.

Shimol tomondan hovliga otxona, sarbozlar yashaydigan binolar va hovliga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq boshqa binolar tutashgan. Janub va G‘arb tarafda Chorbog‘ va hovuzlar bo‘lgan.

Ushbu saroy bugungi kunda shaharning ko‘rkiga ko‘rk bag‘ishlaydi. Nafaqat xalqimiz moddiy madaniy merosi sifatida, balki horijdan keladigan sayyoohlarning ham ma’naviy dunyosi, tafakkurini boyitishga xizmat qilmoqda. Ushbu Saroydagagi O‘lkashunoslik muzeyida Qo‘qon xonligi tarixiga oid ko‘plab ma’lumotlar saqlanib kelinmoqda.

Bundan tashqari Qo‘qon xonlari o‘z hukmronliklari davrida yodgorlik sifatida ikkita maqbari qoldirganlar. Bulardan biri “Daxmai shohon” bo‘lib, u uch asosiy qismga bo‘lingan: gumbazli xona, masjid-ayvon ikkita ustuni bilan va maqbara bo‘lgan. Maqbara uch tarafdan baland bo‘lmagan devor bilan o‘ralgan, arklar panjara bilan to‘sib qo‘yilgan. Maqbaraning pastak binosi va gumbazi unga salobat berib turadi. Devor bezagiga ikkita eshik fayz kiritib, to‘ldirib turadi, bittasi peshtoqda, ikkinchisi masjidga kirishda joylashgan. Eshikning ustiga naqshlar bilan “Usto Muhammad G‘iyosxon” deb yozilgan[10].

Xulosa. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng jahon hamjamiyatining teng huquqli a’zosi sifatida nafaqat siyosiy-iqtisodiy jihatdan, balki dunyoda e’tirof etilgan madaniy merosga ega bo‘lgan davlatlar qatorida mavqeyi ortib bormoqda.

Yurtimizda 7 mingdan ortiq nodir tarixiy yodgorliklar hamda arxitektura namunalarining borligi bunga misol bo‘la oladi. Milliy madaniyatimiz durdonalari san’at va hunarmandchilik an’analalarining asrab avaylab kelinayotganligi uchun mamlakatimizga tashrif buyuruvchi sayyoohlarni yildan yilga ortib bormoqda. Qolaversa bu tariximizga, madaniyatimizga bo‘lgan chuqrur hurmatimizning namunasidir.

Adabiyotlar:

1. O‘zR MMOMQUFIChBB ning joriy arxivi. Pasport. – № 14.
2. Rafiqova H. Qo‘qon jome’ masjidi // Moziydan sado, 2007. – № 2. – B. 30.
3. Mullo Olim Mahdum Hoji. Tarixi Turkiston. – B.39-40.
4. Ibrat. Meros. Farg‘ona tarixi. – Toshkent: Kamalak, 1991. – B. 289-290.
5. Mirzo Olim Toshkandiy. Ansob us- salotin va tavorixi al-havoqin // Qo‘lyozma. O‘zR FAShI.- № 5255. -B. 112-113.
6. Mahmud Hakim Yayfoniq Xo‘qandiy. Xullas at-tavorix. – Xo‘qand, 1914. – B. 29.
7. Madraximova G.S. Dala yozuvlari daftari. 1-daftar. – B. 8.
8. Ismoilova D. Qo‘qon me’moriy yodgorliklari. – B.162.